ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK ANTROPONIMIKASIDA APOTROPEIK KOMPONENTLARNING SODDA VA QO'SHMA ISMLARDA IFODALANISHI

Allamuratova Xosiyat,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Azal-azaldan farzandga ism qo'yishni xalqimiz katta mas'uliyat deb bilishgan. Ism qo'yilish, shak-shubhasiz milliylik, etika va estetika qoidalari, shaxsning orzu istaklari, dunyoqarashi va tasavvuri bilan bog'liq. Bejiz har bir ism vujudga kelmagan, u o'zining tarixi, hududi, mazmuni va geografik tarqalishiga ham egadir. Ism qo'yishning qadimiy udumlari, rasm-rusumlari hozirgi kunda ham saqlanib kelinmoqda, chunki ism bolaning kelgusi baxti va hayoti, salomatligi, kelajagi, taqdiriga ta'sir ko'rsatishiga ishonishgan. Dinda ham ism odamning ruhiyatini o'zida mujassam qilishi bayon etilgan, shuning uchun ham nafaqat musulmon oilalarida, balki barcha dinlarda ham nom berish marosimi alohida e'tiborga molik mas'uliyat deb yondashilgan.

Ma'lumki, antroponimlar eng ko'p madaniy belgilar bo'lib, bu ularning fanlararo tabiati bilan bog'liq. Har qanday tilning antroponimik tizimini bilish, odamlarning o'z-o'zini anglashini ochib berish, ma'lum bir millat yoki mintaqaga tegishli odamlarning psixologiyasi va fe'l-atvorini tushunish uchun asosiy materialdir. Antroponim murakkab xususiyatga ega bo'lganligi sababli, bu davrning madaniy va ijtimoiy kontekstiga bog'liq bo'lib, bu ayniqsa jamiyat rivojlanishining burilish davrlarida seziladi, bu leksik birlikni faqat lingvistik pozitsiyadan o'rganish mumkin emas, shuning uchun antroponimlar kognitiv tilshunoslikning o'rganish obyekti hisoblanadi. Kishi nomlari, birinchi navbatda, turli xil, shu jumladan ekstralingvistik omillar ta'siri ostida shakllanadigan xalqning madaniy ma'lumotlarini saqlovchi hisoblanadi. Bundan tashqari, u dunyoni idrok etish bilan bog'liq va ma'lum bir tarzda uning idrokini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy taraqqiyot jarayonida shaxsiy nomlari tizimi tarixiy-madaniy, ijtimoiy omillar ta'siri ostida frontal o'zgarishlarga duch kelmagan, ammo nom berishning qadimiy an'analarini saqlab qolgan turkiyzabon xalqlarning antroponimlarini o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi.

Shu o'rinda apotropeik ismlar xalqning qadimiy e'tiqodlari, diniy tasavvurlari va farzandlardan kutgan orzu-umidlarini ifodalaydi. Azaldan bizning xalqimiz farzandga ism tanlashda uning ma'noviy go'zalligi bilan bir qatorda ba'zi moddiy-amaliy ehtiyojlar, etnografik qadriyatlarga ham e'tibor qaratishgan. Ajdodlarimiz ismga duo sifatida qarashgan va bu ism umr bo'yi bolaning hayot tarziga ta'sir qiladi deya ishonishgan. Ismlar tarkibida uchraydigan apotropeik (yunoncha *apotropein* – «yovuzlikni qaytarish») komponentlar xalqning farzandlari sog'-salomat, umrli bo'lsin, balo-qazolardan asralib o'ssin degan ezgu niyatidan dalolat beradi. Apotropeik komponentlar o'zbek antroponimikasida juda ko'p uchrab, ular semantik jihatdan turlicha qatlamlarni tashkil etadi.

Farzandli bo'lgan har qanday ota-onaning birinchi orzusi chaqaloqning sog'u salomat bo'lishi va eson-omon ulg'ayishi bo'ladi. Ushbu orzu, umidni ular chaqaloqqa berilayotgan ismda ifodalashadi. Istak-ismning quyidagi guruhlari mana shunday motiv asosida hosil qilingan:

1) bola sog'lom o'ssin istagi: *Jonbo'l, Jonbo'lsin, Jonomon, Salim, Salima, Eson, Esonbeka, Esonkeldi, Esonomon, Esonturdi, Aslam (juda sog'lom), Omon, Omonbaxt, Omonberdi, Omonturdi, Omonboy, Omongul, Omonbonu, Omonjon, Omonyor, Omonoy, Omontoy (sog', omon bo'luvchi), Sihat, Sihatniyoz (sog'lom), Solim (sog'lom)*;

2) farzandi turmasdan o'layotgan oilada navbatdagi kasalmand bolaga kasalni yengadi, chaqaloqning dushmani bo'lmish yovuz kuchlar chekinadi, taslim bo'ladi kabi motivli ismlar berilgan: *Yengadi, Yengildi, Yovqaytar, Yovqochdi, Jovqoch//Jovqash, Jovqoshti, Taslim, Taslima, Xushket, Qarshiboy, Qarshitoy, Qaytar, Qaytgan*;

3) bolasi turmasdan nobud bo'lavergan oilalarda navbatdagi bolaning sog'-omon yashab ketishiga umidlanishgan va ushbu istakning ifodasi bo'lgan ismlar qo'yilgan: *So'lmas, So'lmasoy, So'nma, So'nmasin, Tajallo, Tinchar, Tinchit, Turaqol//Turag'ol, Turdi, Turdiniso, Turjon, Turoy, Turar, Tursun, Turg'un, To'xta, To'xtar, To'xtatursun, To'xtaturdi, O'lmas, O'lmasoy, O'ng'al, O'ng'alsin, Oyto'xta, Tektur, Turomon, To'xtasin, Qoldoim, Qo'ysin;*

4) bolaning umri uzoq bo'lsin, umri bilan ber-

gan bo‘lsin degan motivli ismlar qo‘yilgan: *Abadjon, Ko‘pyashar, Manguberdi, Mo‘mintoy, Umrboqi, Umrzoq, Umriniso, Umrixol, Umrsuyun, Umrtoy, Umrqul, Umrxol*.

Bolgarlar bolaga sog‘lik va uzoq umr istagi bilan bog‘liq *Dobri, Jivko, Zdravko, Lyuben, Ognyan, Stoyan* ismlarini beradi[1];

5) ulg‘aysin, unib-o‘ssin motivli ismlar: *Ulg‘ay, Ulg‘aysin, Ko‘kar, Ko‘karsin, Nihol, Nihola, Niholboy, Niholbibi, Unar, Unsun, Unsunoy, Yuksal, O‘sar, O‘skan, O‘skin, O‘ssin, O‘ssinboy;*

6) ota-onalar farzandlari ko‘payishini, uyi bolalarga to‘la bo‘lishini istashgan: *Ko‘paysin, Ko‘pbo‘lsin, Uyto‘l, Uyto‘la, Uyto‘lsin, Uyto‘ldi*;

7) ota-ona tug‘ilgan chaqaloq oila a’zolariga qo‘shilib, ularga ergashib ulg‘ayishini istashgan: *Jalg‘asin, Jalg‘ash, Ilash, Ilashsin, Ilashxon, Ilashqul, Ulansin, Ulash, Ulashoy, Ulashboy, Ergash, Ergashoy, Ergashxon, Hamdam, Hamdambo‘l, Jo‘ra, Jo‘raboy, Jo‘raxon, Eshbo‘l, Eshbo‘lsin, Eshomon, Eshtur, Eshturdi, Eshtursun, Eshto‘xta, Sherik, Sherikboy, Sherikbo‘l, Birlash;*

8) ba’zi hollarda bola otasi yoki onasi, akasi yoki opasi vafot etgandan keyin dunyoga kelgan. Bunday hollarda tug‘ilgan farzand marhumlar o‘rnini bossin degan tilak bildirilgan, marhum ota yoki onasidan «yodgor» deb hisoblangan: *O‘rinboy, O‘rinbosar, O‘rinbibi, O‘rinbu, O‘rinbadal, O‘rinniyoz, Izbos, Izbosar, Izboskan, Yodgor, Yodgora, Yodgorqiz;*

9) bir qator ismlarda bola kasal bo‘lib yotgan bo‘lsa yoki u tez tuzalavermasa, bolaning sog‘ligi yaxshilik tomon burilsin, u kasallikni yengsin degan umid bilan bolaga quyidagi istak motivli ismlarni tanlashgan: *Buril//Burul, Burilish, Bursin, Do‘nmas (orqaga qaytmaydi), Tinch//Tinish, Tinchir, Tinchit, O‘ng‘al, O‘ng‘alsin, O‘ng‘aloy, O‘ng‘ar, Qayril, Qaytarboy, Qaytmas;*

10) bolasi turmasdan o‘lavergan oilalarda paymonasi to‘lgan ota-onalar oxiri farzandining yashab ketishiga tavakkal qilgan, Alloh o‘zi saqlaydi deb umidlangan: *Tavakkal, Tavakkala, Saqlag‘on, Saqlov, Saqlam* kabi.

11) islom dini namoyandalari nomi bilan atalgan kontamitatsion ismlar: *Najmiddin, Avliyoqul, Avliyozoda, Bahovuddin, Valinazar, Sultonmurod (Ahmad Yassaviy ko‘zda tutilgan), Pirimnazar, Pirberdi, Pirnazar, Pirimniyoz, Eshonboy, Imomqul, Imombergan, Mullayor, Mullazoda, Mullakeldi, Mullaesh*.

Qayd qilingan ismlarni berishga ko‘p holda uch narsa sababchi bo‘lgan: 1) farzandsiz oilalarda qayd qilingan diniy ulamolardan ko‘mak so‘ralgan; 2) aziz, avliyo joylarni ziyorat qilgach, farzand ko‘rgan; 3) o‘sha azizlarning nafasi, ruhi bolani qo‘llab-quvvatlab, balo-qazolardan saqlab yuradi, deb hisoblangan. Ushbu ismlar komponenti bo‘lib keladigan yor, ato, bergan, berdi, baxshi, niyoz, qul, nazar, nafas, murod so‘zlari bundan guvohlik beradi: *Avliyoniyoz, Avliyoqul, Valiyor, Valinazar, Valinafas, Valiniyoz, Valiberdi, Imombaxsh, Imombergan, Imomberdi, Imomyor, Imommurod, Imomnazar, Imomniyoz, Eshonbuva, Eshonkeldi, Eshonmurod, Eshonnazar, Eshonniyoz, Eshonnafas.*

Kontamitatsion antroponimiyalarning katta qismini diniy tushuncha, tasavvur va aqidalar bilan bog‘liq ismlar tashkil qiladi. Islom dinida ham bolani nomlash mas’uliyatiga alohida o‘rin berilgan va bunga doir maxsus qoidalar yozib qo‘yilgan. E.Begmatov bu haqda shunday yozadi: «Ushbu aqidaga ko‘ra, Alloh dunyoga keladigan chaqaloqning rizqu ro‘zini, turmushi, sog‘lig‘i va hayotini, baxtu omadini, yashash muddati va o‘limini ham belgilovchi zotdir. Shunday bo‘lgach, musulmonlar o‘z farzandlarining butun borlig‘i, taqdirini Allohga bog‘lashgan, bolani turli ofatlardan himoya qilishda undan yordam, madad kutishgan. Mana shunday ilinj, umid chaqaloqqa beriluvchi ismlarda ham o‘z ifodasini topgan»[2].

Diniy asosli kontamitatsion ismlar quyidagilar:

1. Bolaning tug‘ilishi, farzandli bo‘lish Allohning xohish-irodasiga bog‘lanadi: *Tangriberdi, Tangribergan, Olloberdi, Haqberdi, Xudoybergan, O‘g‘onberdi, Berdirahmat*. Mazkur guruhga -ulla (aslida -ulloh yoki olloh) (Alloh) komponenti bilan tugagan ismlar ham mansubdir: Baxshulla, Nasibulla, Ne’matulla, Inoyatulla, Rizqulla*, Tuhfatulla, Atoulla kabi.*

2. Bola «Allohning go‘zal ismlari»[3]ga -ulla, -bergan, -berdi, ato- kabi komponentlar qo‘shilgan ismlar bilan nomlanadi: *Azizulla, Ajmulla, Ahadulla, Baqoulla, Karimulla, Latifulla, Majidulla, Nurulla, Rahimulla, Rahmonulla, Sabrulla, Salimulla, Salomulla, Samadulla, Sami’ulla, Faridulla, Fathulla, Xayrulla*.

Bolaning sog‘-salomat o‘sishi istagini ifoda etadigan ba’zi so‘zlar bir qator qo‘shma ismlarning old yoki keyingi komponentida keladi va ko‘pgina qo‘shma ismlarni hosil qiladi hamda bu ismlar ma’nosiga istak, umid ma’nosini kiritadi. Bunday komponentlar, odatda, funksional faolligi va o‘ziga xos xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Mana shunday komponentlar hosil qilgan ismlar namunasini quyidagi 1-2-jadvallarda keltirilgan.

[1] Система личных имен у народов мира. – М.: Наука, 1989. – С 82.
[2] Бегматов Э.А. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 7.
[3] Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: ЎзМЭ. 2007. – Б. 8-11.

1-jadval

Turdi, tursun, to‘xta, bo‘lsin, bo‘l komponentlari yordamida ism yasash

Komponentlar				
turdi	tursun	To‘xta	bo‘lsin	bo‘l
Ismlar				
Boyturdi Bolliturdi Boltaturdi Jumaturdi Jo‘raturdi Mengliturdi Mirturdi Mingturdi Toshturdi Hayitturdi	Boytursun Jumatursun Mirtursun Nortursun Oytursun Ro‘zitursun Safartursun Toshtursun Qurbontursun Xoltursun	Boyto‘xta Mirto‘xta Mengto‘xta Norto‘xta Oyto‘xta Toshto‘xta To‘xta Xolto‘xta Xonto‘xta Elto‘xta	Boybo‘lsin Bekbo‘lsin Ko‘pbo‘lsin Mengbo‘lsin Mingbo‘lsin Xonbo‘lsin Elbo‘lsin Eshbo‘lsin	Boybo‘l Bekbo‘l Mingbo‘l Mengbo‘l Norbo‘l Oybo‘l Toshbo‘l Qulbo‘l

2-jadval

Yashar, turg‘un, turg‘on, omon komponentlari yordamida so‘z yasash

Komponentlar		
yashar	turg‘un // turg‘on	Omon
Ismlar		
Boyyashar Mengyashar Mingjasar Mingyashar Ko‘pyashar Elyashar	Muhammadturg‘un Oytug‘on Oyturg‘on Toshturg‘on Toshturg‘un	Begomon Boyomon Sayidomon Safaromon Elomon Qulomon

Yangi tug‘ilgan bola oiladagi oldingi farzandlarga yoki otasiga, qarindoshlariga esh, o‘rtoq bo‘lib o‘ssin, yursin degan niyat bilan qo‘yiluvchi ismlarga tatarcha *Ataesh (Otaesh), Ishbuldi (Eshbo‘ldi), Ishkelde (Eshkeldi)*[1]; qirg‘iz tilidagi tarkibida do‘st, jo‘ra, esh, sherik so‘zlari mavjud ismlar – *Dosbay, Dosbergen, Jorabay, Joraqul, Konchora, Sherikbay*[2]*;* qozoq tilidagi bolaga umri uzoq bo‘lsin deb beriladigan *Miqbay, Omirzaq, Januzaq, Uzaqbay, Seksenbay, Juzbay* nomlari, shuningdek, turib, yashab ketsin motivli *Turar, Turg‘anbek, Toqtasin, Turaqaldi, Jontemir, Temirbalat* ismlari; turkman tilidagi Togta, Ömur, Baki, Ölmuz, Solmaz, Donmez, Taymaz, Tagan, Mujek nomlari[3]; buryat tilidagi Togto, Togtoxo (to‘xta), Munxe, Munxedoon (munxe – abadiy, mangu), Mənxasan (uzoq, mangu hayot)[4]; tatar tilidagi Bikla, Chiklə, To‘xtasen, Bekman (berk, mustahkam), Beklemish, Chalamish, Bo‘zak (berk) ismlari[5] misol bo‘ladi.

T.Kusimova boshqird antroponimiyasi tizimidagi «tosh», «temir», «po‘lat», «to‘xta» so‘zlaridan yasalgan ismlarni «himoya ismlari» deb yuritadi hamda chuvash onomastikasida «esh» so‘zi qo‘shib yasalgan 200 dan ortiq ism mavjudligini tilga oladi. Ushbu muallif keltirgan «esh» komponentli ismlar orasida Ishey, Ishekey, Isheke, Ishenə, Ishukə, Ishsura, Ishsari, Ishbakə kabi xarakterli ismlar bor. Bir qator ismshunoslar kabi T.Kusimova ham ismlarni ular asosida yotgan apellyativ, ya’ni asl leksemani ta’kidlash usulida tasnif qilgan: oziq-ovqat nomlari, mato nomlari, kasb-hunar nomlari, ijtimoiy titullar,

[1] Шайхулов А. Тематические группы татарских и башкирских личных имен доисламского периода // Номинация в ономастике. – Свердловск, 1991. – С. 137-142. elar.urfu.ru/bitstream/10995/39178/1/ vtop_19_16.pdf

[2] Жапаров Ш. Қыргыз адам аттары. – Фрунзе: Илим, 1989. – Б. 35.

[3] Атаниёзов С. Туркмен адам атларының дүшүндиришли сөзлүги. – Ашгабат: Туркменистан, 1992. – Б. 15.

[4] Алдарова Н. Бурятская антропонимическая лексика. Исконные личные имена. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1979. – С. 9.

[5] Саттаров Г.Ф. Татар антропонимикасы. – Казань: КазДУ, 1990. – С. 139-141.

tosh va metallar nomi, sonlardan yasalgan ismlar[1]. Bunday tasnif ismning yaratilishi, bu so‘zlarning ismga ko‘chish sabab va motivlarini ochmaydi. Xolbuki, «tosh» va «po‘lat» so‘zlaridan yasalgan ismlar tosh, narsa nomini emas, balki «toshdek mustahkam bo‘lsin», «po‘latdek chidamli, mahkam bo‘lsin», oziq-ovqat nomlaridan yasalgan nomlar esa «bola rizqro‘zli, nasibali bo‘lsin, farovon hayot kechirsin» kabi ko‘chma hamda ramziy ma’nolarni ifoda qiladi.

Alohida ta’kidlash lozimki, so‘zning sehriga ishonish, ismlar haqidagi qadimiy tasavvurlar davrlar o‘tishi bilan ma’lum o‘zgarishlarga uchragan, ular bilan bog‘liq motivlar ham yangilangan. Masalan, oy, quyosh, yulduz so‘zlari bilan bog‘liq ismlar qadimda ularga sig‘inish, ulardan madad so‘rash ma’nosini ifodalasa, endilikda ular go‘zallik, baxtu omad tushunchalarini anglatadi. Shu sababli qadimiy nomlarning motivini belgilovchi ba’zi masalalarga qisqacha to‘xtashni lozim topdik. Bular qadimiy majusiylik davrida yuzaga kelgan: 1) totemik; 2) animistik tasavvurlar; 3) turli xil sig‘inish usullaridir.

Bular haqida E.Begmatov o‘z tadqiqotlarida to‘xtalgan hamda Oy, Kun, Oytosh, Oyqanot, Bug‘a, Kuch, Bars, Bo‘ri, Yo‘lbars, Tangri, Kun tangri, Oy tangri, Tong tangri, Tog‘li, Oyjon, Oyxon, Yulduz, Yulduzoy, Yulduzxon, Bug‘raxon va boshqa ismlarni tavsiflagan[2].

A.Shayxulovning fikricha, tatar tilidagi Ay (Oy), Koyash (Quyosh), Yoldiz (Yulduz), Yarik, Yarkiy (yorug‘, ya’ni yorug‘lik, Bolit (Bulut), Buran (Bo‘ron), Yamgirchi (Yomg‘irchi), Asman ko‘k kultiga, Arislan, Bolan (bug‘u), Eteybay (kuzda tug‘ilgan qo‘y, echki bolasi), Kukar (Qo‘chqor), Baytal (Baytal), qushlar nomi: Akkosh (Oqqush), Yarkarlugach (Jarqaldirg‘och), Karga (Qarg‘a); hayvon va qushlarga sig‘inishning qoldiqlaridir[3].

Qadimiy turkiy e’tiqodlar bilan islom dini aqidalarining bir ismda ifodalanish holati o‘zbek antroponimiyasida ham uchraydi: Tursunali, Toshmuhammad, Toshkarim, Turdimuhammad, Oymuhammad, Umarqo‘zi, Bo‘rimuhammad, Qurbonsuluv va boshqalar. Bunday ismlar tarkibida keladigan oy, tosh, ortiq, omon, turdi, tursin qismlari qadimiy turkiy udumlar bilan bog‘liq bo‘lsa, Muhammad, Ali qismlari islomiy tushunchalarni anglatadi. Demak, bu o‘rinda shaxs ikki xil diniy e’tiqodni birlashtiruvchi ma’no anglatadigan qo‘sh ism bilan ifodalangan.

Umuman olganda, kontaminatsion ismlarning barchasini O‘rta Osiyoga islom dini kirib kelishi bilan bog‘lash to‘g‘ri emas. Darhaqiqat, o‘zbekcha qo‘shma ismlar orasida turkiy totemistik, animistik diniy e’tiqod va tasavvurlar bilan islom diniga dahldor tushunchalarni birgalikda qo‘shib ifoda etadigan ismlar ham bor. Kishini qo‘sh nom bilan atash qadimiy turkiylarda azaldan mavjud bo‘lgan: Oytemir, Oyto‘xta, Qilichqalqon.

Keltirilgan qo‘shma ism tiplari haqida olimlar turli fikrlarni bayon qilishgan. Masalan, o‘zbek tilida Omonqilich, Qilicharslon ismlari bor. Olimlardan Xautsma Qilicharslon ismi tarkibidagi *Qilich* so‘zini qadimda xunlar orasida tarqalgan «qilich kulti» bilan bog‘lagan va *qilich* hamda *arslon* so‘zlarini shaxsning *onasi, otasi* totemiga ishora qiladi deb taxmin qilgan. P.M.Melioranskiy ushbu fikrga qarshi chiqqan, chunki u qilich ham arslon ham ota totemiga ishora qiladi deb hisoblaydi. Bu fikrlarni V.A.Gordlevskiy o‘z asarida keltirib o‘tgan. Olim bu masalaga to‘xtalib arslon saljuq urug‘idan kichikroq urug‘ nomi bo‘lsa kerak, deya o‘z xulosasini bildiradi[4]. O‘zbek tili antroponimik tizimida Qilich, Arslon, Bo‘ri, Oy, Temir,Tosh bilan bog‘liq qator kontaminatsion ismlarni ham uchratish mumkin. Ko‘rinadiki, ulardan ko‘zlangan asosiy maqsad bolani turli xatarlardan himoya qilishdir.

Bola dunyoga kelgan paytda yuz bergan xilma-xil tabiiy hodisalar, mo‘jizalar, chaqaloq badanida mavjud bo‘lgan notabiiy holatlar yoki bolaning ko‘rinishidagi ijobiy va salbiy jihatlarni ifoda etish ko‘zda tutilgan ismlar tasviriy ismlarni yuzaga keltiradi. Qayd qilingan jihatlarni ism orqali tasvirlash maqsadi bolani turli kasalliklarga yo‘liqishdan asrash, bevaqt o‘limdan himoya qilishdir. Bizning kuzatishlarimiz bo‘yicha tasviriy ismlar qadimiy antroponimlar namunasi bo‘lib, dunyoda ko‘pchilik xalqlar onomastikasida uchraydi.

Rezyume. Maqolada o‘zbek antroponimikasining katta qismini tashkil qiluvchi qo‘shma (kontaminatsion) ismlar tarkibida apotropeik (bolani yovuz kuchlardan, bevaqt o‘limdan, kasalliklardan, insu jinslar, nazar-suqdan himoya qilishni anlatuvchi) ma’no ifodalovchi komponentlar va ularning semantik xususiyatlari, ularning etnografik-lingvokultrologik ma’nolari va xalq dunyoqarashida tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Ushbu tad-

[1] Система личных имен у народов мира. – М.: Наука, 1989. – С. 82.

[2] Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1965. – Б. 39-45.; Бегматов Э.А. Номлар ва одамлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 11-38.

[3] Шайхулов А. Татарские и башкирские личные имена тюркского происхождения: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, Башкирского университет, 1982. – С. 26.; Шайхулов А. Тематические группы татарских и башкирских личных имен доисламского периода. // Номинация в ономастике. – Свердловск, 1991. – С. 137-142. elar.urfu.ru/bitstream/10995/39178/1/vtop_19_16.pdf

[4] Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. - Б.246-247.

qiqotda qo‘shma va sodda ismlar tarkibida apotropeik komponentlar diniy, ijtimoiy va madaniy omillarning shakllanishidagi roli yoritiladi.

Resume. The article analyzes apotropaic components and their semantic features within compound (contaminated) names, which constitute a significant part of Uzbek anthroponymy. These components convey meanings related to the protection of children from evil forces, untimely death, illnesses, the influence of the opposite sex, and the evil eye, reflecting their ethnographic and linguistic-cultural significance and their role in popular worldview. The study also highlights the role of apotropaic elements in compound and simple names in the formation of religious, social, and cultural factors.

Резюме. В статье анализируются апотропейные компоненты и их семантические особенности в составе сложных (контаминационных) имен, которые составляют значительную часть узбекской антропонимики. Эти компоненты выражают значение защиты детей от злых сил, преждевременной смерти, болезней, воздействия противоположного пола и сглаза, отражая их этнографическое и лингвокультурное значение, а также место в народной картине мира. В исследовании также освещается роль апотропейных элементов в составе сложных и простых имен в формировании религиозных, социальных и культурных факторов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

СИНОНИМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В СЛОВАХ С ГЕНДЕРНЫМИ ПРИЗНАКАМИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Раджапова Наталья Базаровна,
кафедра русского языкознания
Термезский государственный университет

В последнее время в нашей стране наблюдается все возрастающий интерес к гендерным исследованиям. Гендерная лингвистика возникла на стыке наук лингвистики и гендерологии и имеет тесные связи с социологией, политологией, социо- и психолингвистикой. Гендерная лингвистика изучает язык и речевое поведение с применением инструментария гендерологии[1]. В центре внимания гендерных исследований находятся стереотипные представления о мужских и женских качествах, речевое поведение индивидов в связи с их принадлежностью к тому или иному полу, представленность в языке категории рода, наличие гендерной асимметрии и т. д.

Синонимические отношения в словах с гендерными признаками могут быть использованы для выявления нюансов в значении и коннотациях, присущих тем или иным терминам. Например, слова «мужчина» и «самец» могут обозначать одно и то же, но их использование в различных контекстах может вызвать разные ассоциации и эмоции. Анализ синонимов позволяет глубже понять, как языковые единицы взаимодействуют друг с другом и как они могут быть использованы для передачи определенных смыслов и установок. Семантические особенности гендерных слов играют ключевую роль в понимании того, как язык отражает и формирует гендерные представления. Изучение значений и коннотаций, связанных с гендерной лексикой, позволяет выявить скры-

[1] Каменская О. Л. Гендергетика - наука будущего // Гендер как интрига познания. Пилотный выпуск. – Москва: Изд-во Рудомино. – 2002. 15 с.